| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                     | 1015 |
| Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li                                                                                                                                    |      |
| ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ .....                                                                | 1020 |
| Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna                                                                                                       |      |
| IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....                                                                            | 1025 |
| Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li                                                                                                       |      |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                               | 1031 |
| Камилова Наргиза Абдукажоровна                                                                                                                                         |      |
| THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES .....                                            | 1036 |
| Ataxanov Umidbek Olimovich                                                                                                                                             |      |



|                                                                                                                                                                         |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI ..... | 1042 |
| Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich                                                                                                                                         |      |
| OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI .....                                                    | 1047 |
| Madenova Elmira Nzamatdinovna                                                                                                                                           |      |
| УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР .....                                                    | 1052 |
| Эргашев Мухиббек Аслам угли                                                                                                                                             |      |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....                                                                          | 1057 |
| Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li                                                                                                      |      |
| BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI .....                                                                             | 1062 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna                                                                                                                                            |      |
| ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ» .....                                                                                              | 1067 |
| Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович                                                                                                                                |      |
| DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....                                                                             | 1071 |
| Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li                                                                                                                                        |      |
| TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI .....                                                                                                               | 1075 |
| Quralov Nurxissa Iles o'g'li                                                                                                                                            |      |
| TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....                                                                          | 1082 |
| Haydarov Jasur Baxodir o'g'li                                                                                                                                           |      |
| O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI .....                                                                                                               | 1087 |
| Mamatov Xabibulla Mamatovich                                                                                                                                            |      |
| O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI .....                                                               | 1091 |
| Turayev Ziyadulla Norsoatovich                                                                                                                                          |      |
| ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                 | 1095 |
| Xoshimov Sobir Murtazayevich                                                                                                                                            |      |
| KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....                                                                                                | 1103 |
| Daminova Madinaxon Bahromjon qizi                                                                                                                                       |      |
| TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....                                                                       | 1110 |
| Saidova Dilfuza Abdufattohovna                                                                                                                                          |      |
| O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI .....                                                                               | 1117 |
| Muxammedova Zarina Murodovna                                                                                                                                            |      |
| SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI .....                                           | 1121 |
| Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich                                                                                                                                       |      |
| IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....                                                                                        | 1126 |
| Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich                                                                                                                                        |      |
| ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....                                                                                                 | 1131 |
| He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.                                                                                                                                              |      |
| РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА .....                                                                               | 1135 |
| Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович                                                                                                                                |      |
| "YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI .....                                                                                                | 1140 |
| Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich                                                                                                                                       |      |



|                                                                                                                                                               |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR..... | 1146 |
| Mu Zhendi                                                                                                                                                     |      |
| TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....                                                              | 1156 |
| Z.T. Bakayev                                                                                                                                                  |      |
| ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....                                                   | 1161 |
| Аблаева Валентина Борисовна                                                                                                                                   |      |
| KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI .....                                                                | 1169 |
| Saparov Murod Irgashovich                                                                                                                                     |      |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL .....                                                | 1173 |
| Qo'ziboyev Behzod Hamidovich                                                                                                                                  |      |
| "2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI" .....                                                | 1177 |
| Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.                                                                                                                  |      |



# “2025-YIL YAKUNI BO‘YICHA O‘ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA’LUMOTLARI TAHLILI”



**Ergashev E'zozbek Umirzakovich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,  
matematik iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

E-mail: [ezozbeke0@gmail.com](mailto:ezozbeke0@gmail.com)

Ilmiy rahbar:

**Vaxabov A.V.**

i.f.d., prof.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 2025-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda inflyatsiya darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar Markaziy bank va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF)ning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot 2020–2025-yillar ma'lumotlariga tayangan holda pul massasi, almashuv kursi va asosiy foiz stavkasining inflyatsiyaga ta'sirini baholaydi. Natijalar pul massasi o'sishi va valyuta kursidagi o'zgarishlar inflyatsiyani shakllantiruvchi asosiy omillar ekanini ko'rsatdi. Olingan xulosalar inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston, 2025-yil, Markaziy bank, IMF, statistik tahlil.

**Abstract.** In this article, the main factors influencing the inflation rate in Uzbekistan by the end of 2025 are analyzed based on official statistical data from the Central Bank and the International Monetary Fund (IMF). The study evaluates the impact of money supply, exchange rate, and the key interest rate on inflation using data from 2020–2025. The results indicate that the growth of the money supply and fluctuations in the exchange rate are the primary factors shaping inflation. The obtained conclusions have practical significance for improving economic policies aimed at maintaining inflation at a stable level.

**Key words:** inflation, economic growth, Uzbekistan, 2025, Central Bank, IMF, statistical analysis.

**Аннотация.** В данной статье на основе официальных статистических данных Центрального банка и Международного валютного фонда (МВФ) проведён анализ основных факторов, влияющих на уровень инфляции в Узбекистане по итогам 2025 года. Исследование основано на данных за 2020–2025 годы и оценивает влияние денежной массы, обменного курса и ключевой процентной ставки на инфляцию. Полученные результаты показали, что рост денежной массы и изменения валютного курса являются основными факторами формирования инфляции. Сделанные выводы имеют практическое значение для совершенствования экономической политики, направленной на поддержание инфляции на стабильном уровне.

**Ключевые слова:** инфляция, экономический рост, Узбекистан, 2025 год, Центральный банк, МВФ, статистический анализ.

## KIRISH

Har qanday davlat iqtisodiyotida yuzaga keladigan inqirozlar nafaqat alohida shaxslar hayotiga, balki jamiyatning umumiy farovonligi va barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday jarayonlar iqtisodiy tizimning turli bo'g'inlarida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirib, ijtimoiy muhitga ham ta'sir etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, inflyatsiya hodisasining mohiyatini chuqur anglash, uning kelib chiqish sabablari va



oqibatlarini atroflicha tahlil qilish hamda mazkur jarayonni samarali boshqarish mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya – bu iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy hamda uzluksiz o'sishi bilan tavsiflanadigan murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u pul muomalasi qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq holda pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Mazkur hodisa, asosan, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosibliklar natijasida yuzaga keladi. Inflyatsiya iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatib, aholining real daromadlari, iste'molchilar xarid qobiliyati, jamg'armalar hajmi hamda umumiy biznes faolligiga bevosita ta'sir etadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, "inflyatsiya" atamasi ilk bor 1861–1865-yillardagi Fuqarolar urushi davrida AQShda qo'llanilgan bo'lib, ushbu davrda pul massasining keskin ortishi iqtisodiy muvozanatning buzilishiga sabab bo'lgan [1].

Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlarning ortishi korxonalar faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarning oshishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning foydasi qisqaradi, bu esa mahsulot hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada bozorda tovarlar taklifi qisqarib, narxlar darajasining oshishiga sharoit yaratadi. Ishlab chiqarish xarajatlarning o'sishi ko'pincha nominal ish haqlarining ortishi, xom ashyo resurslari narxlarining ko'tarilishi hamda energiya tashuvchilari qiymatining oshishi bilan izohlanadi. Ushbu omillar iqtisodiyotda narxlar barqarorligiga ta'sir ko'rsatib, inflyatsion bosimning kuchayishiga olib keladi [2].

Inflyatsiya turli iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi va odatda bir nechta asosiy turlarga ajratiladi. U iqtisodiyotdagi turli guruhlar o'rtasida daromad va boylikning qayta taqsimlanishiga ham xizmat qiladi [3]. Eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra, inflyatsiya talab va taklif omillari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Talab inflyatsiyasi iqtisodiy muvozanat sharoitida umumiy talab hajmining umumiy taklifdan yuqori bo'lishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday vaziyat iste'mol xarajatlarning ortishi, investitsion faollikning kuchayishi yoki davlat xarajatlarning kengayishi bilan izohlanadi. Talabning ortishi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ustun kelib, narxlar darajasining oshishiga olib keladi.

Taklif inflyatsiyasi esa ishlab chiqarish xarajatlarning o'sishi bilan bevosita bog'liqdir. Xom ashyo narxlarining oshishi, ish haqi fondining kengayishi yoki energiya resurslari qiymatining ko'tarilishi kabi omillar ishlab chiqaruvchilar xarajatlari orttiradi. Bu esa mahsulot tannarxining oshishiga va yakuniy narxlarning ko'tarilishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotda narxlarning umumiy darajasi o'sib, inflyatsion jarayonlar shakllanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inflyatsiya zamonaviy makroiqtisodiyotning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik, aholi real daromadlari va investitsiya faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya jarayonlari va uning omillarini o'rganish iqtisodiy nazariya hamda amaliy iqtisodiy siyosatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inflyatsiyaning nazariy asoslari monetar maktab vakillari tomonidan keng tadqiq qilingan. Jumladan, Milton Friedman inflyatsiyani pul massasi o'sishi bilan bog'liq jarayon sifatida izohlaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra, iqtisodiyotda pul massasining ortishi narxlar umumiy darajasining oshishiga olib keladi [4]. Inflyatsiya jarayonlarini tushuntirishda inflyatsion kutilmalar ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada Olivier Blanchard o'zining Macroeconomics asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Iqtisodiy agentlarning kelajakdagi narxlar haqidagi kutilmalari real inflyatsiya darajasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi" [5].

Umuman olganda, inflyatsiya iqtisodiy tizimning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning darajasi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlik, pul-kredit siyosati samaradorligi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining muvozanati bilan chambarchas bog'liqdir. Inflyatsiya ko'pincha pul-kredit tizimining iqtisodiyotdagi narxlar darajasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati natijasida yuzaga keladi. Agar iqtisodiyotda narxlarning tabiiy pasayish tendensiyasi mavjud bo'lsa, markaziy banklar ayrim hollarda talabni rag'batlantirish maqsadida pul massasini kengaytiradi. Natijada iqtisodiyotda qo'shimcha likvidlik shakllanib, bu narxlar umumiy darajasining oshishiga, ya'ni inflyatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi. Shu bois zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda inflyatsiya ko'pincha pul massasining kengayishi va monetar siyosatning moslashuvchanligi bilan bog'liq holda izohlanadi [6].

Shu sababli, inflyatsiya jarayonlarini chuqur o'rganish va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020-yildan boshlab pul-kredit siyosatini inflyatsion targetlash rejimi doirasida olib bormoqda. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetning ta'minlanishi aholi va tadbirkorlarning daromadlari hamda jamg'armalarining xarid qobiliyatini saqlashga xizmat qiladi, ularga uzoq muddatli xarajatlarni rejalashtirish imkonini beradi hamda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda 2025-yil yakuni bo'yicha inflyatsiya omillari hamda aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalarini tahlil qilish maqsadida turli ilmiy usullar va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish hamda ularni iqtisodiy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning axborot bazasini Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan inflyatsiya sharhlari, inflyatsion kutilmalar bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etadi. Shuningdek, inflyatsiya jarayonlari va inflyatsion kutilmalarni o'rganishga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlardan ham foydalanildi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy usullar qo'llanildi. Jumladan, analiz va sintez usullari yordamida inflyatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi. Statistik tahlil usuli orqali 2025-yil yakunlari bo'yicha aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari ko'rsatkichlari umumlashtirildi hamda ular turli sohalar kesimida taqqoslab tahlil qilindi.


Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli qo'llanilib, inflyatsion kutilmalar shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar izohlandi. Mazkur usul yordamida aholi va tadbirkorlarning kelajakdagi narxlar darajasi bo'yicha qarashlari iqtisodiy muhit, narxlar dinamikasi hamda makroiqtisodiy siyosat bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Natijada qo'llanilgan metodologiya O'zbekistonda inflyatsiya omillari va inflyatsion kutilmalarni kompleks tahlil qilish, shuningdek, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy qarashlarini baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Inflyatsion kutilmalar iqtisodiy subyektlarning kelajakdagi narxlar dinamikasi haqidagi qarashlarini aks ettirib, makroiqtisodiy jarayonlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, aholi va tadbirkorlarning inflyatsiya bo'yicha kutilmalari iste'mol qarorlari, investitsiya faoliyati hamda narx shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, inflyatsion kutilmalarni tahlil qilish inflyatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunish hamda iqtisodiy siyosat samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Aholining inflyatsion kutilmalari [11].




2025-yil davomida respondentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, inflyatsion kutilmalarga ta'sir etuvchi omillar turli darajada namoyon bo'lgan. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim omillar yil davomida yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lsa, ayrimlarining ta'siri vaqt o'tishi bilan pasaygan.

2025-yil davomida inflyatsion kutilmalarga ta'sir etuvchi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, respondentlar orasida eng yuqori ulush kommunal xizmatlar narxining oshishi bilan bog'liq bo'lib, yil boshida 57–63 % atrofida kuzatilgan va yil oxiriga kelib 50% darajasida saqlanib qolgan. Shuningdek, yoqilg'i va energiya narxlarining oshishi ham muhim omil bo'lib, yil davomida 40–52 % oralig'ida qayd etilgan.

Valyuta kursining o'zgarishi yil boshida 46 % ni tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 23 % gacha pasaygan. Transport xarajatlari va asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi mos ravishda o'rtacha 24–31 % va 22–28 % oralig'ida kuzatilgan. Bundan tashqari, ish haqi va nafaqalar oshishi ayrim davrlarda 35 % gacha yetib, talab inflyatsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari inflyatsion kutilmalar shakllanishida eng katta ta'sir kommunal xizmatlar hamda energiya resurslari narxlarining oshishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari [11].

2025-yil davomida tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalariga ta'sir etuvchi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, eng katta ulush kommunal xizmatlar narxining oshishi bilan bog'liq bo'lib, yil davomida 44–58 % oralig'ida saqlanib qolgan. Shuningdek, yoqilg'i va energiya resurslari narxining oshishi ham muhim omil sifatida 40–50% atrofida qayd etilgan.




Valyuta kursining o'zgarishi yil boshida 51 % ni tashkil etgan bo'lsa, yil davomida izchil pasayib, noyabr oyida 19 % gacha tushgan. Transport xarajatlarining oshishi esa 30–37 % oralig'ida bo'lib, ishlab chiqarish va logistika xarajatlari orqali narxlarga ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari, ish haqi va nafaqalar oshishi, xomashyo narxlarining oshishi hamda soliq yukining darajasi 21–34 % diapazonda kuzatilib, tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalarida o'rta darajadagi omillar sifatida namoyon bo'lgan. Umuman olganda, tadbirkorlar uchun inflyatsion bosim, asosan, ishlab chiqarish xarajatlari — kommunal xizmatlar, energiya resurslari va transport xarajatlarining oshishi bilan bog'liqligi kuzatiladi.

Aholi va tadbirkorlarning 2025-yildagi inflyatsion kutilmalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, har ikki guruh uchun ham eng muhim omillar sifatida kommunal xizmatlar hamda yoqilg'i va energiya resurslari narxining oshishi yetakchi o'rin egallagan. Biroq aholi inflyatsiyani ko'proq iste'mol bilan bog'liq omillar, ya'ni kundalik xarajatlar — kommunal xizmatlar, oziq-ovqat va transport narxlari orqali baholagan bo'lsa, tadbirkorlar inflyatsion bosimni, asosan, ishlab chiqarish va biznes xarajatlari, jumladan, xomashyo narxlari, transport xarajatlari hamda soliq yukining ta'siri orqali baholagan.

Shuningdek, valyuta kursining o'zgarishi yil boshida har ikki guruh uchun muhim omil bo'lgan bo'lsa-da, yil davomida uning ta'siri sezilarli darajada pasaygan. Umuman olganda, taqqoslash natijalari inflyatsion kutilmalar shakllanishida aholida iste'mol xarajatlari, tadbirkorlarda esa ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq omillar ustun ekanligini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Sohalar kesimidagi inflyatsion ko'rsatkichlar.

Diagramma natijalari inflyatsion kutilmalar turli faoliyat sohalarida turlicha shakllanishini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkichlar pensionerlar (12,9 %), qurilish (12,8 %), turizm (12,7 %) va ishlab chiqarish (12,6 %) sohalarida qayd etilgan bo'lib, bu guruhlar narxlar o'zgarishiga nisbatan sezgir ekanligini bildiradi.

O'rta darajadagi inflyatsion kutilmalar tibbiyot, savdo, AT va OAV hamda maishiy xizmatlar sohalarida (12–12,5 %) atrofida shakllangan. Shu bilan birga, ilm-fan va ta'lim hamda davlat tashkilotlari vakillarida ko'rsatkichlar respublika bo'yicha o'rtacha darajaga yaqin (11,5–12 %) darajada saqlanib qolmoqda.

Nisbatan past inflyatsion kutilmalar transport xizmatlari, kafe va restoranlar, qishloq xo'jaligi hamda bank-moliya sohalarida kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich talabalar orasida (9,5 %) qayd etilgan.

Umuman olganda, ushbu natijalar inflyatsion kutilmalar iqtisodiy faoliyat turi, daromad manbai hamda bozor narxlariga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq ravishda shakllanishini ko'rsatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inflyatsion kutilmalar darajasi aholi va tadbirkorlar o'rtasida bir xil emas. Aholi orasida inflyatsion kutilmalar ko'proq kundalik iste'mol tovarlari narxining o'zgarishi bilan bog'liq holda shakllansa, tadbirkorlik subyektlarida esa ishlab chiqarish xarajatlari, xomashyo narxlari hamda bozor kon'yunkturasi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga keladi. Shuningdek, ayrim iqtisodiy faoliyat sohalorida inflyatsion kutilmalar darajasi boshqa sohalarga nisbatan yuqoriroq shakllanishi kuzatiladi.

Olib borilgan tahlillar inflyatsion kutilmalar narxlar dinamikasining muhim determinantlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy subyektlarning kelajakdagi narxlar haqidagi qarashlari iste'mol va investitsiya qarorlariga ta'sir ko'rsatishi natijasida real inflyatsiya darajasining shakllanishiga ham ta'sir etadi. Shu sababli inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 2026-yil fevral oyida aholining sezgan yillik inflyatsiyasi 11,6 % ni tashkil etib, yanvar oyiga nisbatan 0,1 foiz bandga pasaygan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (13,3 %), Andijon (12,9 %) va Farg'ona (12,2 %) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, eng past daraja Qoraqalpog'iston Respublikasida (10 %) kuzatilgan. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi inflyatsiyani, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i, kommunal xizmatlar, dorilar hamda transport xizmatlari narxlarining oshishi orqali sezmoqda. Shu bilan birga, daromad darajasi ham inflyatsion kutilmalarga ta'sir ko'rsatib, yuqori daromadga ega guruhlar narxlar o'sishini nisbatan yuqoriroq baholagan.

Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish maqsadida pul-kredit siyosatining shaffofligini oshirish va iqtisodiy subyektlarga muntazam ravishda aniq hamda ishonchli axborot yetkazib borish;

- narxlar barqarorligini ta'minlash orqali iqtisodiy subyektlarning inflyatsiya bo'yicha kutilmalarini muvozanatlashtirish;

- ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali narxlar bosimini kamaytirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 316 b.
2. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 711 b.
3. Blyth M., Fraccaroli N. Inflation: A Guide for Users and Losers. – Yale University Press, 2025. – 18-b.
4. Friedman M. Inflation: Causes and Consequences. – 1963. – 17-b.
5. Blanchard O. Macroeconomics. 7th edition. – 2017. – 210-b.
6. Brown B., Simonnot P. Bad Money: Inflation Mongers in War, Pandemic, and Recession. – Springer, 2024.
7. Qo'chqorov J.R. Pul-kredit va moliya siyosati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
8. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 324 b.
9. World Bank. Inflation in Emerging and Developing Economies: Analysis and Policy Recommendations.
10. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish: darslik. – Toshkent, 2023. – 233 b.
11. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Boston: USA, 2020.
12. <https://www.imf.org/en/Home>
13. <https://cbu.uz/uz/>
14. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/21/yil-nomi/>
15. <https://stat.uz/uz/>
16. <https://kun.uz/kr/38253638>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---